


Abdulkarimbiy ibn Shohruhbiiy



Abdulkarimbiy ibn Shohruhbiiy

(1710-1750)

(1733-1750)

Ming sulojasidan bo'lgan Qo'qon xoni. **Shohruxbiying** o'g'li. Akasi Abdurahimbiy vafot etgach (1733), taxtga o'tirgan. Xonlik o'rdasini Qo'qon yaqinidagi Tepaqo'rg'ondan Qo'qonga ko'chirgan. 1746 yil O'ratega hokimi **Fozilbiy** yordamida Qalmoqlar hujumini qaytargan. Abdulkarimbiy Qo'qon shahrida saroy, madrasa, bozor va Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Toshkent, Haydarbek nomli shahar darvozalarini qudirgan.

Akasi vafot etgach hukmdor etib tayinlanadi, u Qo'qonga ko'chib boradi va uni qaytadan quradi. 1746 yilda xitoyliklar Qoshg'arni bosib oladilar va jung'or davlatini tor-mor qiladilar, qalmiq ko'chmanchilarining bir qismi g'arbga yurib, Farg'ona vodiysiga bostirib kiradilar. Abdulkarim qalmiqlarga qarshi Qipchoq bachcha boshchiligidagi qo'shin yuboradi, lekin u o'ldiriladi. Uning ishongan qo'shini esa qochib ketadi, natijada qalmiqlar Qo'qonga yaqinlashib qoladilar. O'ratega xoni Fozilbiy (Sodiqbiyning o'g'li va Abdulkarimning atalgan o'g'li) buni bilib qolib, qo'shin bilan yordamga keladi. Qonli janglardan so'ng qalmiqlar Qo'qondan chekinadilar.

Abdulkarim 1750 yilda 40 yoshida vafot etadi, Qo'qon xonligi taxtiga esa uning o'g'li Abdurahmon o'tiradi.

U o'z poytaxtini Tepaqo'rg'on dan Qo'qon shahri o'rniga ko'chiradi. U Qo'qonning Eski o'rda degan joyida o'rdaqal'a qudiradi. Atrofini shahar qilib, devor bilan o'ratadi. O'shanda Qo'qonning Qatag'on, Marg'inon, Toshkand, Haydarbek degan to'rt darvozasi bo'lgan.

Abdulkarimxon o'z davlatini mustahkamlashga, xalq farovonligini oshirishga intildi. 1745-1746 yillari qalmoqlar Farg'ona vodiysiga hujum qilib O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarini bosib olib, Qo'qon ostonalariga kelib poytaxtni qamal qiladilar. Qo'qonliklar og'ir ahvolga tushib qolganda O'ratega hokimi Fozilbek qo'shnlari bilan birga qalmoqlarga yordamga yetib keladi va xoinlar ham tor-mor etiladi. Shu tariqa, farg'ona vodiysi dushmanidan ozod qilinadi.

2023-11-05 19:19:54